

DOI: 10.5281/zenodo.15860505

Link: <https://zenodo.org/records/15860505>

MAHALLA INSTITUTINI TASHKIL ETISH ASOSLARI VA SAMARALI FAOLIYATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Toshtemirova Zilola Madaminjonovna

"University of Economics and Pedagogy" NOTM,

Iqtisodiyot kafedrasi katta o'qituvchisi .

Tel:+998991000624

toshtemirova_zilolaxon@gmail.com

Annotatsiya: Mahalla – bu nafaqat fuqarolar yashash manzili, balki ularning o'zaro ijtimoiy munosabatlari, hamkorlik va yordam shakllari, an'analar hamda madaniy merosini saqllovchi muhim ijtimoiy institut hisoblanib, asosan qo'shnichilik munosabatlari, o'zaro yordam, to'y va marosimlarni tashkil etishda faol ishtirok etgan. Mahalla institutini tashkil etish qonun bilan kafolatlangan, tarixiy an'analarga asoslangan, jamiyatdagi aniq amaliy ehtiyojlarga javob beradigan tizimdir. U davlat va jamiyat o'rtasidagi muvozanat va muloqot ko'prigi hisoblanadi. O'zbekistonda mahalla instituti mustaqillik yillarda davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni ta'minlashda, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda muhim o'rinni egalladi. Ushbu maqolada mahalla institutini tashkil etishning huquqiy va ijtimoiy asoslari, uning tarixiy ildizlari, hamda hozirgi kundagi samarali faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, mahalla tuzilmasining davlat va jamiyat o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in sifatidagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: mahalla, jamoatchilik, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish, ijtimoiy institut, davlat va jamiyat munosabati, xuquqiy, tarixiy, tashkiliy-amaliy va ijtimoiy-psixologik asoslari, faollar guruhi

Kirish. Mahalla – bu nafaqat fuqarolar yashash manzili, balki ularning o'zaro ijtimoiy munosabatlari, hamkorlik va yordam shakllari, an'analar hamda madaniy merosini saqllovchi muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. O'zbekistonda mahalla instituti mustaqillik yillarda davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni ta'minlashda, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda muhim o'rinni egalladi. O'zbekiston xalqining ma'naviyati va turmush tarzining ajralmas qismi maxalla hisoblanadi. U faqatgina ma'muriy birlik emas, balki fuqarolar o'rtasida o'zaro ahillik, hamjihatlik va ko'makdoshlikni ta'minlovchi, tarixiy ildizlarga ega bo'lgan ijtimoiy institutdir.

Mahalla fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish shakli sifatida davlat va jamiyat munosabatlarida muhim rol o'ynaydi. Yurtimizning ijtimoiy to'qimasini bog'lab turuvchi, tarixiy va zamonaviy qadriyatlarni uyg'unlashtiruvchi muhim tuzilma sifatida maxalla instituti fuqarolarni jamiyatdagi ishtirokini oshiradi, davlat va jamiyat o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi. Huquqiy asoslari mustahkam, tashkiliy jihatdan aniq tuzilgan va ijtimoiy ahamiyati yuqori bo'lgan bu institutni yanada rivojlantirish O'zbekistonning barqaror ijtimoiy taraqqiyotining kafolatida muxim ahamiyatlidir.

Asosiy qism. Mahalla institutini tashkil etishning huquqiy, tarixiy, tashkiliy-amaliy va ijtimoiy-psixologik asoslari mavjud. Mahalla instituti Sharq jamiyatlarida yuzlab yillik tarixga ega. U o'z-o'zini boshqarish va birdamlikka asoslangan an'anaviy jamoa tizimining ifodasi bo'lib, asosan qo'shnichilik munosabatlari, o'zaro yordam, to'y va marosimlarni tashkil etishda faol ishtirok etgan.

1) Mahalla institutini tashkil etishning huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasida qonunchilik bilan qat’iy tartibga solingan bo‘lib, quyidagi huquqiy hujjatlar uning tashkil etish asosini belgilab beradi:

1993 yil 2 sentabrda qabul qilingan «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi Qonun mahallaning tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilab bergen. Qonunga ko‘ra, mahalla raisi fuqarolar yig‘ilishi tomonidan taklif etiladi va tuman (shahar) hokimi tomonidan tasdiqlanadi. U mahallaning ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy rivojiga mas’ul hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mahalla institutiga fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida huquqiy maqom berilgan. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mahalla institutiga oid bir qator muhim o‘zgarishlar kiritilgan. Bu o‘zgarishlar mahallaning fuqarolik jamiyatidagi o‘rnini mustahkamlash va uning davlat boshqaruvidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan. Yangi Konstitutsiyaning 69-moddasida “Fuqarolik jamiyati institatlari, shu jumladan mahallalar, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati qonunga muvofiq amalga oshiriladi - deb belgilangan. Bu orqali mahalla fuqarolik jamiyatining muhim instituti sifatida konstitutsiyaviy maqomga ega bo‘ldi. 1999 yilda qabul qilingan “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunga asosan, mahallaning maqomi, vakolatlari va faoliyat sohalari belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko‘ra:

- Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari mustaqil faoliyat yuritish huquqiga ega.
- Mahalla — davlat organlaridan mustaqil fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish shakli sifatida e’tirof etilgan.

“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunida (yangi tahrir, 2023) Mahallaning vazifalari, tuzilishi, raisi (oqsoqoli), faollari va komissiyalar haqida aniq ko‘rsatmalar beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida (PQ-4954, PQ-60-son, 2022) “Mahallabay ishlash” tizimini joriy qilish orqali mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi roli yanada mustahkamlandi.

2) Tarixiy asoslarida mahalla institutini an’anaviy o‘zini o‘zi boshqarish tizimi mavjud.

- Mahalla instituti o‘zbek xalqining tarixiy madaniyatida yuzlab yillardan buyon mavjud bo‘lib kelgan.
- Ilgarilari “qishloq oqsoqoli”, “aravakashlar kattasi”, “xokimul mahalla” kabi shaxslar mahallani boshqargan.
- Islom va ma’naviy qadriyatlar ta’siri ostida mahalla nafaqat ma’muriy birlik, balki ma’naviy va diniy tarbiya o‘chog‘i sifatida ham xizmat qilgan (jome masjid, maktab, kutubxona markazlashgan hududlar).

3) *Tashkiliy-amaliy asoslariga asosan Mahalla raisi (oqsoqol) – fuqarolar umumiyligi yig‘ilishiida saylanadi.* Faollar guruhi – xotin-qizlar, yoshlar, ma’naviyat,

bandlik, tadbirkorlik kabi yo‘nalishlarda ishlaydi. Komissiyalar – nodavlat organ sifatida fuqarolar manfaatlarini himoya qilishda faol ishtirok etadi.

Asosiy vazifalari;

- -Aholining ijtimoiy muhofazasi
- -Kam ta’milanganlarga yordam
- -Tartib-intizom va ma’naviy tarbiya ishlari
- -Mahalladagi muammolarni aniqlash va yechishda davlat organlari bilan hamkorlik
- -Mahalla faoliyati mahalliy budjet, homiyalar va jamoatchilik yordami orqali moliyalashtiriladi.

– Mahalla institutini ijtimoiy-psixologik asoslari mahallada fuqarolar o‘rtasidagi ishonch, hurmat va o‘zaro yordam munosabatlari mustahkamligida namoyon bo‘ladi. Bu esa jamoatchilik asosida muammolarni hal etishga qulay muhit yaratadi.

Mahalla faoliyatiga ta’sir etuvchi omillar

1. Moliyaviy ta’milot va moddiy baza

Mahalla faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan uning moliyaviy imkoniyatlariga bog‘liq. Davlat subsidiyalari, homiylik mablag‘lari va jamoatchilik yordami ushbu institut faoliyati uchun zarur manbalar hisoblanadi.

2. Kadrlar salohiyati

Mahalla raisi va uning yordamchilari (xokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi va boshqalar)ning bilim va malakasi, tashabbuskorligi faoliyat natijadorligiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish

Raqamlı texnologiyalardan foydalanish, ayniqsa, aholini ro‘yxatga olish, murojaatlarni tahlil qilish, davlat organlari bilan tezkor axborot almashinuvini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

4. Huquqiy savodxonlik va aholining faolligi

Aholining huquqiy madaniyati va faol jamoatchilik pozitsiyasi mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ishtirokini kuchaytiradi.

5. Davlat va mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlik

Samarali mahalla faoliyati uchun davlat va mahalliy hokimiyat organlari bilan samarali hamkorlik zarur. Bu orqali ijtimoiy xizmatlar, kam ta’milangan oilalarni qo’llab-quvvatlash, yoshlar va ayollar muammolarini hal etish mumkin bo‘ladi.

Ular maxalla faoliyatiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish va moliyaviy resurslar taqsimoti haqida ma’lumotlarni ifodalaydi.

Mahalla instituti moliyaviy resurslari taqsimoti

No	Resurslar	Foizda
1	Davlat budjeti	60%
2	Jamoatchilik yordami	25%
3	Xususiy sektor	10%
4	Xorijiy grantlar	5%

Mahalla faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilishda ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va madaniy sohalardagi bir qator omillar e'tiborga olinishi kerak. Quyidagi asosiy omillarni tahlil qilib o'tamiz:

№	Omillar	Izoh
1	Ijtimoiy omillar:	Aholi soni va tarkibi – mahalladagi aholi soni, yosh va jins tarkibi faoliyatni rejalashtirishda muhim hisoblanadi. Aholi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar – aholi o'rtasida hamjihatlik, hamkorlik darajasi mahallaning barqarorligiga ta'sir qiladi. Maorif va madaniyat darajasi – mahalladagi ta'lim muassasalari, kitobxonlik, madaniy tadbirlar faoliyat samaradorligiga turtki beradi
2	Iqtisodiy omillar:	Aholi bandligi va ishsizlik darajasi – ishsizlikning yuqori darajada bo'lishi ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Mahallaning iqtisodiy infratuzilmasi – bozorlar, kichik biznes, ustaxonalar mavjudligi aholining daromad manbalarini belgilaydi. Oilaviy daromad va kambag'allik darajasi – aholining turmush darajasi faoliyat samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.
3	Huquqiy va ma'muriy omillar:	Qonunchilik bazasi – mahalla faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarning mukammalligi. Mahalliy hokimiyat va organlar bilan hamkorlik – mahalla raisi, faollar va mahalliy hokimiyatlar o'rtasidagi hamkorlik darajasi. Huquqbazarliklar darajasi – huquqbazarliklar kam bo'lsa, fuqarolarning davlat organlariga ishonchi ortib boradi.
4	Madaniy va ma'naviy omillar:	Mahalladagi an'analar va urf-odatlar – jamoa ichidagi munosabatlarni shakllantiradi. Ma'naviyat va tarbiya ishlari – yoshlar tarbiyasi, diniy-ma'rifiy tadbirlar ahamiyatlidir. Ijtimoiy tadbirlar faolligi – aholining jamoat ishlarida faol ishtiropi muhim ahamiyatga ega.

Quyida mahalla faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni analiz va tahlil asosida har bir omil nafaqat ro'yxat qilinadi, balki uning maxsus ta'siri, muammoli nuqtalari, va tajriba asosida yechim imkoniyatlari ham ko'rsatiladi.

1. Ijtimoiy omillar taxlili.

Mahallada aholi tarkibining yoshga va ijtimoiy holatga ko'ra to'g'ri o'rganilmasligi natijasida faoliyat noto'g'ri yo'naltirilishi mumkin. Yoshlar soni yuqori bo'lgan mahallalarda ularning faoliyatini yo'naltirish zarurati tug'iladi. Agar bu inkor qilinsa, ishsizlik, deviant xulqlar, migratsiya kuchayadi. Ijtimoiy birlik va ishonch darajasi past bo'lsa, mahallada jamoatchilik ishlari sust kechadi.

Yechim taklifi:

Demografik xarita tuzish. Aholi orasida "ijtimoiy kapital"ni oshirish bo'yicha jamoaviy tadbirlar (sport, madaniy, ma'rifiy kechalar). Yoshlar yetakchilarini tarbiyalash va faollashtirish.

2. Iqtisodiy omillar taxlili.

Ishsizlik darajasi baland bo‘lgan mahallalarda jinoyatchilik, maishiy nizolar ko‘payadi.Kambag‘allik ko‘p bo‘lgan joylarda ijtimoiy yordam tizimiga ortiqcha yuk tushadi va aholining davlatga ishonchi pasayadi.Iqtisodiy infratuzilma (bozorlar, ishlab chiqarish joylari, ta’mir ustaxonalar) yo‘q bo‘lsa, aholida mustaqil daromad manbalari rivojlanmaydi.

Yechim taklifi:

"Har mahallaga bir loyiha" tamoyili asosida kichik biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash.Tadbirkorlar uchun imtiyozli kreditlar va o‘quv kurslarini tashkil etish.Ayollar va nogironlar uchun mehnatga jalg etuvchi maxsus dasturlar yaratish zarur.

3. Huquqiy va ma’muriy omillar taxlili.

Qonunchilikka aholida yetarlicha xabardorlik yo‘q, bu esa jamoaviy faoliyatda passivlikka olib keladi.Mahallada norasmiy "gruppalashishlar" bo‘lsa, bu mahalla faoliyatiga to‘siq bo‘ladi (masalan, mahalliy “avtoritetlar” ta’siri).Fuqarolar yig‘ini raisi va uning jamoasi faqat texnik vazifalarni bajarayotgan bo‘lsa, mahallaning ijtimoiy rivojlanishi sust kechadi.

Yechim taklifi:

Mahalla rahbarlari uchun muntazam malaka oshirish kurslarini joriy etish
“Fuqaro manfaati – rahbar mas’uliyati” tamoyilini amalda joriy etish.
Har oyda fuqarolar bilan ochiq muloqotlar va hisobot yig‘ilishlarini tashkil etish.

4. Ma’naviy-madaniy omillar taxlili.

Mahallada an’analalar va urf-odatlar saqlanmagan bo‘lsa, yosh avlodda o‘zlikni yo‘qotish, madaniy nochorlik yuzaga keladi. Ijtimoiy tadbirlar formal, qo‘lbola uyushtirilsa, aholining qiziqishi so‘nadi. Masjid, madaniyat uyi, kutubxona kabi ma’naviyat markazlari faol bo‘lmasa, ma’naviy muhit yo‘qoladi.

Yechim taklifi:

Urf-odatlarga asoslangan ma’naviy tarbiya dasturlarini qayta tiklash.

Mahalla hududida kutubxona, madaniy markaz faoliyatini qayta jonlantirish.

Yoshlar uchun “mentorlik” tizimini joriy etish (masalan, haftaning bir kunida “Ustoz va shogird” kechasi)

Xulosa. Mahalla institutini tashkil etish qonun bilan kafolatlangan,tarixiy an’analarga asoslangan,jamiyatdagi aniq amaliy ehtiyojlarga javob beradigan tizimdir. U davlat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanat va muloqot ko‘prigi hisoblanadi.

Mahalla instituti O‘zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish va fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokiga zamin yaratuvchi muhim institutdir. Uni samarali tashkil etish va rivojlantirish uchun qonunchilik bazasini takomillashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish, moddiy resurslarni ko‘paytirish va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish zarur.

Mahalla faoliyatini samarali tashkil etish uchun yuqoridaq omillarni tahlil qilish, ularga ta’sir etuvchi muammolarni aniqlash va hal qilish bo‘yicha aniq choratadbirlar ishlab chiqish lozim. Buning uchun:

- -Aholining ehtiyojlarini o‘rganish,
- -Hamjihatlik muhitini yaratish,
- -Bandlikni oshirish bo‘yicha loyihalar yaratish,

– -Yoshlar va ayollar uchun alohida dasturlar ishlab chiqish zarur.

Mahalla faoliyati samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi jarayonlardan iborat. Ularning har biri ustidan tizimli va ilmiy yondashuvda ish olib borilmasa, mahalladagi muammolar tuplanadi va oxir-oqibatda ijtimoiy barqarorlikka tahdid paydo bo'ladi.

Mahallaning SWOT tahlilini tayyorlash ya'ni kuchli, zaif tomonlar, imkoniyatlar va xatarlarini o'rganish muhim. Har chorakda mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholab borish,mahalla faoliyatini raqamlashtirish, fuqarolarning fikri, muammolari va takliflarini interaktiv yo'l bilan yig'ish va muammolarni xal etish yuzasidan manzilli ishlarni bajarish orqali maxallani rivojlantirishga erishiladi

Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati

- 1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
- 2) "Mahalliy davlat hokimiysi to'g'risida"gi Qonun. – 1993
- 3) "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun (yangi tahrir) 1999 yil.
- 4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (PQ-4954-son, 2021 yil)"Mahallabay ishslash" tizimi, joylardagi muammolarni aniqlash va hal etish mexanizmi.
- 5) 2022–2026 yillarda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi
- 6) Ahmedov J. "Mahalla institutining ijtimoiy rolini oshirishda innovatsion yondashuvlar". Toshkent, 2022.
- 7) Karimov Sh. "O'zbekistonda mahalla institutining shakllanishi va rivojlanishi", Ilmiy nashr, 2021.
- 8) Rahmatov A.N. "Mahalla institutining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy funksiyalari" TDYUU, 2020 y
- 9) Statistika va tahliliy ma'lumotlar manbalari
 - a. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
- 10) Veb-sayt: stat.uz (<https://stat.uz/>)
- 11) O'zbekiston Milliy axborot agentligi (UzA) va Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi axborotlari